

YANGI TAXRIRDAGI KONSTITUTSIYADA INSON QADRI VA INKLYUZIV TA'LIMGA OID MODDALAR TAHLILI

Sotboldiyeva Nigora Alimirzayevna

*Namangan viloyat Namangan tuman pedagogika kollejining
Umumkasbiy va maxsus fan o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi konstitutsiyada inson qadri va inklyuziv ta'limga oid moddalar tahlili haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, referendum, inson qadri, inklyuziv ta'lim.

Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

"Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha „inclusif“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, „o'z ichiga oladi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas.

„Inklyuziv“ va „integratsiyalashgan“ atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada bu tushunchalar orasida farq bor^[1].

• Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.

• [Integratsiyalashgan](#) ta'lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

• Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va [ko'nikmalarni](#) oladigan tarzda tashkil etiladi^[2]. Inklyuziv ta'lim-alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. [UNICEF](#) inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim

taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

19-may kuni [Oliy Majlis](#) ilk bor inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim tushunchasi kiritilgan yangi tahrirdagi „Ta'lim to'g'risida“ gi qonunn qabul qildi. O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi bo'yicha tahlil o'tkazdi. Qonunning 20-moddasi olish imkoniyatini yaratadi. Qonunning 20-moddadasida Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilanadi. „Inklyuziv ta'lim“ bu ta'rifni o'z ichiga olmaydi. Unda faqatgina „inklyuziv ta'lim barcha bolalarga, ta'lim olish chog'ida o'ziga nisbatan har qanday tarzdagi kamsitishni istisno etuvchi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga nisbatan teng huquqli munosabatda bo'lish“ haqida so'z boradi. O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim tadqiqotchisi, [yangi Zelandiyadagi](#) Vaykato universiteti doktoranti Galina Nam, nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlarda yoki uyda emas, umumiy ta'lim muassasalarida ta'lim olish ustuvor bo'lishi kerakligini aytgan „Bu barcha davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining bir vaqtda yopilishini anglatmaydi, lekin bolalarning bu kabi maskanlarda va uyda o'qishiga faqatgina alohida holatlarda rozilik berishimiz zarur. Ta'lim muassasasini tanlash huquqi bolalarning o'zida va ularning ota-onasida qonuniy vakillarida qolishi kerak“, deya ta'kidlaydi Galina Nam

„Mutaxassislar“ o'z tavsiyalari bilan nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olishning qay bir shaklida o'qishlari qaroriga ta'sir o'tkazadilar. O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy yo'nalishdagi tajribasi shuni ko'rsatadiki, institutsional vakolatga ega bo'lgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarning tavsiyalari institutsional kuchga ega bo'lib, maslahat emas, imperativ xususiyat bildiradi. Bu [nogiron](#) bolaning qayerda o'qishi borasida psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarning tavsiyalari ota-onalarda shubha qoldirmaydi. Shuningdek, qonun va uning moddalarini O'zbekistonda nogironlik diskursinining ijtimoiy va madaniy holatidan kelib chiqib o'qish lozim“, — deydi [AQSHning](#) Sirakuz universiteti doktori Mirjahon Turdiyev.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgarish kiritishga doir takliflar ichida 41-moddani o'zgartirish bo'yicha bildirilgan takliflar ijobiy yechim topishi amalda konstitutsiyamizning milliy qiyofasini belgilab beradi. Boisi ushbu takliflarga

e'tibor qaratadigan bo'lsak, "pedagog xodimlarning maqomini har jihatdan mustahkamlash jamiyat va davlatning maqsadi ham mas'uliyatli vazifasidir. Pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga aralashishga, shuningdek, ularning xizmat majburiyatlarini bajarishiga monelik qilishga yo'l qo'yilmaydi" degan normalar bilan boyitish taklif qilinmoqda. Bu mamlakatimizning qisqa tarixida yuz bergan salbiy holatlar hamda ushbu holatlarning xalqimizning milliy mentalitetiga zid bo'lganligi sababli ko'pchilik fuqarolarimizning haqli e'tirozlariga sabab bo'lganligi bilan bog'liq holatlarning oldini olish imkonini beradi. Xalqimizda "Ustoz otangdek ulug'" degan naql bor va ustozlarni hurmat qilish milliy xarakterimizning ajralmas qismidir. Afsuski, 2017 yilgacha o'qituvchilar, hatto maktab o'quvchilarining ham paxta terimiga majburlanishi, bu davrda mashg'ulotlar chetga surib qo'yilishi, bu ham yetmagandek, ayrim rahbarlarning o'z vakolatlaridan chetga chiqib, ta'lim muassasalari o'qituvchilarini obodonlashtirish, hatto qurilish ishlariga majburlanishi, 2021 yilda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib, xalqimizning qattiq e'tiroziga sabab bo'lgan Andijon viloyatidagi maktab o'qituvchilarining "uzr so'rattirish" marosimlari yaqin o'tmishimizning qora dog'lari bo'lib, bu oxir-oqibat ta'lim tizimiga putur yetkazdi. Buni to'g'ri anglagan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, prezidentlik muddatining birinchi kunlaridanoq ta'limni isloh qilishni, birinchi navbatda o'qituvchilarning obro'-e'tiborini oshirishdan boshlash lozimligini ta'kidlab kelmoqda. Va yangilanayotgan konstitutsiyaning 41-moddasini yuqoridagi normalar bilan boyitishi haqidagi takliflari ham, o'sha keyingi 5-6 yil davomida amalga oshirib kelinayotgan ijobiy ishlarning navbatdagi bosqichi bo'ldi, deb o'ylayman.



Ushbu moddaga kiritilayotgan yangi normalardan yana biri – iste'dodli yoshlarning moddiy ahvolidan qat'i nazar ta'lim olishlarini davom ettirishlarini davlat

o‘z zimmasiga olayotganligidir. Ma‘lumki, yangi konstitutsiyada konseptual o‘zgarish yasayotgan normalardan biri – mamlakatimizni “ijtimoiy davlat” deb e‘lon qilinayotganidir. Ijtimoiy davlatning asosiy belgilaridan biri jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglikning ta‘minlanganligidir. Shunga ko‘ra, 41-moddaga kiritish taklif etilayotgan yuqoridagi norma davlat iste‘dodli yoshlarni keng, jumladan moddiy ahvolidan ham qat‘i nazar, qo‘llab-quvvatlashini nazarda tutadi.



Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda bu borada qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekistonda keng o‘tkazilayotgan “Yosh kitobxon” va “Zakovat” tanlovlari, iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasi hamda iqtidorli yoshlarning xorijiy nufuzli ta‘lim muassasalarida tahsil olishlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “El-yurt umidi” jamg‘armalari faoliyatining davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanayotgani shular jumlasidandir. Xususan, iqtidorli yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishlari va xalqaro sertifikatlariga ega bo‘lishlarini rag‘batlantirish uchun ushbu sertifikatga ega bo‘lgan yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilmoqda. 2021 yil 1 maydan 5 turdagi, 2022 yil 1 yanvardan 13 turdagi (jami 18 turdagi) xalqaro imtihon tizimlarida yuqori natijaga erishgan yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilmoqda. Bugunga qadar mazkur tizim orqali 5441 nafar yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berildi va bu qariyb 10 mlrd so‘mni tashkil qilmoqda. Ushbu normalarning konstitutsiyaga kiritilishi ko‘pchilikni qiziqtirayotgan yana bir muammoga ham ijobiy yechim bo‘lib, o‘z hissasini qo‘shadi. Ma‘lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda mulkchilik shakli turlicha bo‘lgan oliy ta‘lim muassasalari ko‘payib bormoqda. Ayrim xususiy ta‘lim muassasalari ta‘lim berish sifatiga ko‘ra mamlakatimizning otaxon universitetlarini ham ortda qoldira boshladi. Iste‘dodli yoshlarning ushbu muassasalarda tahsil olishlari esa, ulardagi iste‘dodning yanada sayqallanishiga olib keladi. Yangi konstitutsiyaga kiritish taklif etilayotgan

davlatning ijtimoiy ekanligi (1), iste'dodli yoshlarning moddiy ahvolidan qat'i nazar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi (2) hamda 41-moddada taklif etilayotgan yana bir norma – mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha turdagi ta'lim muassasalari rivojlanishi uchun davlat teng sharoitlar yaratib berishi to'g'risidagi (3) normalarga tayangan holda aytish mumkinki, yangilangan Konstitutsiya iste'dodli yoshlarni eng yaxshi ta'lim muassasalarida, u xoh xususiy bo'lsin, xoh davlatniki, ta'limni davom ettirishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

50-modda.

Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi.
2. X. N. Muzaffarova, D. Tangirova „[Inklyuziv ta'lim](#)“. *library.samdukf.uz*. Qaraldi: 10-noyabr 2022-yil.
3. Musurmonova, O.. [Umumiy pedagogika](#). Yoshlar nashriyot uyi, 8-oktabr 2020-yil — 48-49 bet. [ISBN 978-9943-6679-0-7](#). 10-noyabr 2022-yilda qaraldi.
4. „["Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun va inklyuziya: qanday bo'lishi kerak?](#)“ (o'zbekcha). *gazeta.uz* (9-iyun 2020, 16:00). Qaraldi: 10-noyabr 2022-yil.